

## DAVAN DAVLATI VA UNING TARAQQIYOTI.

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar fakulteti

3-bosqich talabasi

**Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li**

E-mail: [bilolmuhammadiyev640@gmail.com](mailto:bilolmuhammadiyev640@gmail.com)

Tel: +998883638090

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Davan davlatining vujudga kelishi, uning taraqqiyoti, aholisi, boshqaruvi, aholi mashxuloti, qo'shni davlatlar bilan aloqalari va qadimgi Xitoy bilan kurashlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona, Davan, Xitoy, Ershi, Chjan Siyan, Elchilik aloqalari, Davan otlari.

Davan davlati tarixi g'oyatda qiziq va muhim. Farg'ona vodiysida vujudga kelgan ushbu davlat o'zining geografik joylashuvi sababli qadimgi Xitoy va O'rta Osiyo o'rtasida muhim rol o'ynagan. Davan davlati o'z davrida yaxshi rivojlangan o'lka bo'lgan. Aholisi vodiya dehqonchilik, tog'li hududlarda esa chorvachilik bilan shug'ullangan. Bu yerda boqilgan otlar afsonaga aylangan. O'z navbatida, Buyuk ipak yo'lining vujudga kelishida ham Davan davlati o'z o'rniga ega va qaysidir ma'noda sababchilardan deb ham hisoblanadi.

Qadimgi Davan davlati haqida Xitoy manbalari xabar beradi. Ammo Davan davlati haqida yozma ma'lumotlar oz bo'lib, bugungi kunda kam o'rganilgan. Davan davlati haqida uning vujudga kelishi, hududi, poytaxti kabi masalalar bahsli. Bugungi kunda ma'lum bo'lgan ma'lumotlarga tayanib, Farg'ona vodiysi Ahamoniylar, Aleksandr Makedoniyalik, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya davlatlari tarkibiga kirmagani ma'lum. Davan davlatining qachon vujudga kelgani haqida taxminlar mavjud. Olimlar

miloddan avvalgi VIII–VII asrlarda Chust madaniyatining so‘nggi bosqichlarida shahar-davlatlar vujudga kelgan deb hisoblaydi. Farg‘ona vodiysida davlatchilikning vujudga kelishi miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Davan davlatini ham miloddan avvalgi IV–III asrlarda vujudga kelgan deb belgilash mumkin. Bunga sabab birinchisi: aynan mazkur davrga oid arxeologik topilmalar (Sho‘rabashat madaniyati)ning topilishi bu yerda ishlab chiqarish kuchlari rivojlanganligini (tovar ishlab chiqarish va savdoning kuchayishini) taxmin qilishga asos bo‘ladi. Ikkinchisi: mil. avv. II asrdayoq bu yerda ko‘p sonli shaharlar mavjud bo‘lgan. Oldingi Xitoy manbalarida Farg‘ona Davan yoki Dayuan (Da-Van — katta Van) nomi bilan ataladi.

Davan davlati chegaralari hali aniq belgilanmagan. Xitoy manbalariga ko‘ra, Davan katta davlat bo‘lgan edi. Chjan Szyan ma‘lumotlari uni shimoli-g‘arbda Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlari hududini egallagan Qang‘ bilan chegaralanganligini, janubda yuechjilar bilan, shimolda usunlar bilan chegaradosh bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Davan qadimgi Xitoy poytaxtidan g‘arbga qarab 10 000 li masofada joylashganligi haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan. G‘arbiy Farg‘ona (hozirgi Xo‘jand viloyati) va Oloy Davanning tarkibiga kirgan-kirmaganligi aniq emas. T.V. Belyaev ma‘lumotlariga ko‘ra, milodiy 82-yillarda Xo‘jand Davanning bir qismi bo‘lgan. [1, b. 95].

Mil. avv. III asrdan boshlab butun Farg‘ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlari bo‘ylab Axsikent, Marhamat, Quva, Marg‘ilon, Bob (Pop) kabi ko‘hna shaharlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham mil. avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg‘onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma‘lumot beradi.

Sima Szyanning “Tarixiy xotiralar” asarida Davanning ikkita poytaxti — Ershi va Yuchen bo‘lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo‘q. Ular O‘zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo‘qon, Koson, Axsikent, O‘ratepa yoki Jizzax o‘rnida joylashtiriladi.[4, b. 88].

Mil. avv. 125-yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Szyan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko'radi. Chjan Szyan Davanning qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: "O'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko'plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham buzilmay saqlanadi". Shuningdek, bu elchi ushbu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ham ma'lumot beradi.[7, b. 143].

Bu vaqtda (ya'ni miloddan avvalgi I asrning ikkinchi yarmida) Farg'onada kam deganda 60 000 oila, ya'ni 300 000 kishi istiqomat qilgan. Mazkur raqamni keltirgan xitoylik muallif aftidan Farg'onada o'sha vaqtda mavjud aholi sonini nazarda tutmagan. Zero, boshqa bir ma'lumotga ko'ra, butun Farg'ona bo'ylab aholi soni bir necha yuz ming kishini tashkil qilgan, boshqa bir ma'lumotda Davani qo'shinini soni 60 000 kishidan iboratligi aytilgan. Chunki bu davrda Davan (Farg'ona) birliklari tushunchasi aslida Farg'onadan kengroq hududni o'z ichiga olgan makon hisoblangan.

Farg'onaga kelgan Xitoy elchisi Chjan Szyanning asl maqsadi mintaqaning Baqtriya qismida hukmron ko'chmanchi yuechijilar bilan xunlarga qarshi ittifoq tuzish bo'lib, yo'l -yo'lakay Farg'onaga ham kirgan va shu tariqa birinchi bor bu o'lka bilan tanishgan. Farg'ona hukmdori uni iliq kutib olib, ketar chog'ida aloqa (pochta) xizmatchilarini hamroh qilib beradi.

Chjan Szyan safarni tugatib Xitoyga qaytib, Xan sulolasi hukmdoriga o'z taassurotlari va ma'lumotlarini so'zlab beradi. Chunonchi, agar ushbu hududlarga hujum qilinsa, Xitoy mulkini g'arb tomon qarib 10 ming liga (taxminan 5.800 km) ga kengaytirish mumkin edi.. Bundan ruhlangan hukmdor avvaliga g'arbiy davlatlarga josuslarni yuborib, u yerdagi hukmdorlarning o'zaro nizolashtirishni amalga oshirishni boshlaydi. Keyinchalik bu tomonlarga, xususan Farg'onaga ham elchilar yuborib turadi. Shu o'rinda Xitoy elchisi Chi Linning Farg'onada bo'lishi diqqatga sazovordir. Kumush va oltindan yasalgan ko'plab ot

haykalchalar bilan Fargʻonaga kelib, evaziga argʻumoqlar berishni soʻraydi. Oqsoqollar kengashi unga rad javobini beradi. Chi Lin alamdanda xaqoratli gaplar aytib oltin haykalchani sindirib tashlaydi. Shu tariqa ikki davlat oʻrtasida sovuqchilik tushib, harbiy harakatlar boshlanadi.[3, b. 50].

Mil. avv. 104–101-yillar orasida Xitoy qoʻshinlari Fargʻonaga ikki marta bostirib kirdilar. Birinchi yurish mil. avv. 104-yilda Xitoy qoʻshinlarining tor-mor etilishi bilan tugadi. Ikkinchi marta, mil. avv. 101-yilda 60 000 kishilik Xitoy qoʻshini Fargʻonaning yirik shaharlaridan biri — Ershini ( tahminan hozirgi Andijon viloyatiga qarashli Marhamat qishlogʻi oʻrnida boʻlgan) qamal qildilar. Lekin shaharni ola olmadilar, sulh tuzib va ozgina ulpon, 3000 bosh ot olib qaytib ketishga majbur boʻldilar.[5, b. 32].

Maʼlum boʻlishicha, qadimgi Fargʻonada davlat hukmdor (podsho) tomonidan boshqarilgan. Uning 2 ta yordamchisi boʻlib, ular davlatni boshqarishda bevosita ishtirok etgan. Siyosiy hayotda Oqsoqollar kengashi (Parlament) katta rol oʻynagan. Unda davlat ahamiyatiga ega boʻlgan masalalar muhokama qilingan. Jumladan, urush eʼlon qilish, tinchlik sulhini tuzish, zarur boʻlganda, hukmdorni taqdiri ham hal qilingan. Masalan, Xitoy bilan Fargʻona orasida yuz bergan 4 yillik urushning oxirida hukmdor Mugua fargʻonaliklarning magʻlubiyatida asosiy aybdor deb topilib, oʻlimga hukm qilinadi. Xitoyliklar sulhdan soʻng Fargʻonaga keksa Motsayni hukmdor qilib, orqaga qaytadilar. Xitoyliklarning bu qilmishi Oqsoqollar kengashiga yoqmaydi va ular Motsayni xoinlikda ayblab, uni taxtdan tushirib, oʻldirishadi va avvalgi hukmdor Muguaning ukasi Chan Finni taxtga koʻtarishadi.[2, b. 28].

Qadimgi Fargʻonaning ijtimoiy va siyosiy hayotida ayollarning oʻrni salmoqli edi. Ayollarga nisbatan hurmat va tavoze kuchli boʻlgan. Yozma manbalarning guvohlik berishicha, agar ayol eriga biror topshiriq buyursa, er topshiriqni soʻzsiz bajarishi lozim boʻlgan. Antik Fargʻona aholisining tashqi qiyofasi qangʻlarga oʻxshab ketishi Xitoy manbalarida koʻrsatiladi. Ular chuqur koʻzli va qalin soqolli boʻlganlar. Chjan Szyan Davandan (Fargʻonadan) to Ansi (Parfiya)gacha boʻlgan hududlarda yashovchi aholi til

jihatdan har xil bo‘lsa-da, ular bir-birlarini tushunganlar, ularning urf-odatları ham bir-biriga o‘xshash bo‘lgan, deb ta’kidlaydi.

Qadimgi Davan davlatini milodning dastlabki yuz yilliklari davomida mahalliy aslzodalar sulolasi boshqargan. Buni Xitoy manbalari tasdiqlaydi. Bu manbalarda ko‘rsatilishicha, qadimgi Farg‘onani 419-yilgacha bir sulola vakillari uzluksiz idora qilganlar. O‘rta Osiyo hududlarida eftaliylar davlati qaror topgach, qadimgi Farg‘ona davlati ham o‘z mustaqilligini yo‘qotib, ana shu eftaliylar davlati tarkibiga kirgan edi. [6, b. 81].

Xulosa qilib aytganda, Davan davlati qadimgi Farg‘ona vodiysida shakllangan va o‘z davrida iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan. Uning qulay geografik joylashuvi Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo va madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Davan aholisi dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan, ayniqsa, mashhur otlari bilan dunyoga tanilgan. Shuningdek, Davan davlati Xitoy bilan olib borilgan siyosiy va harbiy munosabatlar orqali mintaqa tarixida muhim o‘rin egallagan. Uning ijtimoiy hayoti, shaharsozlik darajasi va madaniyati yuqori taraqqiyot bosqichida bo‘lganini manbalar tasdiqlaydi. Umuman olganda, Davan davlati O‘rta Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan qadimiy davlatlardan biri sifatida baholanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Алимova Д.А., Ртвеладзе Э.В. Ўзбек давлатчилиги тарихи. 1-жилд. — Т.: Akademnashr, 2021. — 552 б.
2. Anarbayev A. Farg‘onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o‘rni. – Т.: 2021. – 140 b.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). Масъул муҳаррир: Б. Ахмедов. – Т.: Шарқ, 2000. – 368 б.
4. Eshov B. O‘zbek davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – Т.: 2012. – 426 b.
5. Мадраимов А., Фузайлова Г. Манбашунослик. – Т.: Фан нашриёти, 2007. – 294 б.

6. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-jild. – T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2010. – 512 b.

7. Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. I жилд — Т.: 2014. — 489 б.